

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDA OLIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OAK)NI TASHKIL QILISH TO'G'RSIDA**

(O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y., 6-son, 245-modda)

Yuqori malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash yangi tizimini shakllantirish, ularni respublika ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotining ustuvor muammolarini hal qilishga yo'naltirish, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni davlat yo'li bilan ekspertiza qilishni ta'minlash hamda ilmiy va ilmiy pedagog jamoatchilikning takliflariga muvofiq:

1. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi (O'zbekiston Respublikasi OAK) tashkil qilinsin

2. O'zbekiston Respublikasining Oliy attestatsiya komissiyasi zimmasiga quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish yuklansin:

— rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini hisobga olib yuqori malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlashning yangi tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

— yuqori malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlarni davlat yo'li bilan attestatsiyadan o'tkazishning xalqaro talablariga mos keladigan va beriladigan diplomlarning hamma joyda o'tishini ta'minlaydigan tizimini shakllantirish;

— ilmiy xodimlar ixtisoslarining malaka xususiyatlariga nisbatan talablarni hamda ilmiy darajalar va ilmiy unvonlarni berish tartibi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish;

— fan va texnikaning eng yangi yo'nalishlari bo'yicha ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlashni rejalashtirishda O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat komiteti bilan birgalikda ishtirok etish;

— ilmiy darajalar beruvchi ixtisoslashtirilgan Kengashlarni va ilmiy unvonlar beruvchi Kengashlarni tuzish (tugatish)ga va ro'yxatdan o'tkazishga oid takliflarni tayyorlash hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish, ularning faoliyatini nazorat qilib turish;

— attestatsiya tizimini takomillashtirish, qo'shma ixtisoslashtirilgan va ekspert kengashlarini tashkil etish, attestatsiya hujjatlarini o'zaro tan olish to'g'risida bitimlar tuzish va xalqaro ma'lumotlar banklaridan foydalanish yuzasidan xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish.

3. Belgilab qo'yilsinki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi o'z vakolati doirasida qabul qilgan qarorlar Fanlar akademiyasi, tarmoq akademiyalari, vazirliklar, idoralar, o'quv yurtlari, ilmiy tashkilotlar va muassasalar kimga bo'ysunishidan qat'i nazar, ular uchun majburiydir.

4. Ilmiy darajalar hamda unvonlar beruvchi ixtisoslashtirilgan va ilmiy kengashlarning rahbarlari O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida kengashlar qayta ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar hujjatlarni qabul qilish va ko'rib chiqishni to'xtatib tursinlar.

5. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi bir oy muddat ichida Oliy attestatsiya komissiyasining faoliyatini tashkil etish masalalariga doir qarorni qabul qilib, komissiya tuzilmasini va uning to'g'risidagi nizomni tasdiqlasin.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

*Toshkent sh.,  
1992 yil 31 mart,  
PF-371-son*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI OLIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH MASALALARI**

«O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (O‘zbekiston Respublikasi OAK)ni tashkil etish to‘g‘risida» 1992 yil 31 martdagi Farmonga muvofiq hamda yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashni ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Belgilansinki, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (O‘zbekiston Respublikasi OAK) respublika Fanlar akademiyasi, tarmoq akademiyalari, vazirliklari, idoralari, konsernlari, ilmiy tashkilotlari va muassasalarining, ularning qaysi idoraga bo‘ysunishidan va mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va ularni attestatsiyadan o‘tkazish, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish ishida xalqaro hamkorlik bo‘yicha davlat siyosatini ro‘yobga chiqarish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

2. Zimmasiga yuklatilgan vazifalarga va faoliyatining yo‘nalishlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga quyidagi huquqlar berilsin:

fan, texnika, ta‘lim va madaniyatni rivojlantirishning yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy va ilmiy-pedagog xodimlar ixtisoslari nomenklaturasini ishlab chiqish va tasdiqlash;

ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni, yo‘riqnomalarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan kengashlar, fan yo‘nalishlari bo‘yicha ekspertlar kengashlari tuzish hamda ularning shaxsiy tarkibini tasdiqlash, unvonlar berish yuzasidan ilmiy kengashlarning takliflarini ko‘rib chiqish va tasdiqlash;

ixtisoslashtirilgan kengashlar ishi ustidan muntazam va ta‘sirli nazoratni amalga oshirish, ularning tarkibiga o‘zgartishlar kiritish, bir gallik dissertatsiyalar himoyasiga ruxsat berish, kengashlarning faoliyatini to‘xtatish yoki ularni yopish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

himoya qilingan dissertatsiyalarni zarur hollarda respublikaning yirik olimlari va mutaxassislarini, shuningdek, chet el mutaxassislarini jalb etgan holda davlat ekspertizasidan o‘tkazish;

respublika va davlatlararo ilmiy-uslubiy kengashlar va konferensiyalar tashkil qilish, respublika tashqarisida o‘tkaziladigan shu kabi tadbirlarda ishtirok etish uchun O‘zbekiston OAK vakillarini yuborish;

vazirliklar va idoralardan, Fanlar akademiyasi, tarmoq akademiyalaridan, konsernlar, uyushmalar, tashkilotlar va muassasalardan yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan materiallarni olish;

«OAK axborotnomasi» jurnalini nashr etish.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi apparatining tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin. OAK raisiga zarur bo‘lganda tasdiqlangan xodimlar soni va mehnat haqi fondi doirasida apparat tuzilmasiga o‘zgartishlar kiritish huquqi berilsin.

Oliy attestatsiya komissiyasi apparati xodimlarining cheklangan soni (xizmat ko‘rsatuvchi xodimlardan tashqari), tegishli mehnat haqi fondi bilan 45 nafardan, shu jumladan, shaxsiy tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan OAK raisi, raisning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosari, shuningdek, bosh ilmiy kotibdan iborat qilib belgilansin.

Maqomi, maishiy, tibbiy va transport xizmati ko‘rsatish bo‘yicha OAK raisi — vazirga, raisning birinchi o‘rinbosari — vazirning birinchi o‘rinbosariga va o‘rinbosari — vazir o‘rinbosariga tenglashtirilsin.

Fanlar akademiyasining rahbarlari va ilmiy bo‘linmalari uchun ko‘zda tutilgan mehnatga haq to‘lash shartlari ilmiy ekspertiza bilan shug‘ullanuvchi rahbarlarga va bo‘linmalarga nisbatan, boshqaruv organlari uchun ko‘zda tutilgan shartlar esa — qolgan xodimlarga nisbatan qo‘llanilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi to‘g‘risidagi ilova qilinayotgan Nizom tasdiqlansin.

5. «O‘zshartnomasavdo», «O‘zistiqlolstat» davlat qo‘mitasi belgilangan tartibga muvofiq materiallar, asbob-uskunalar, buyumlar va boshqa moddiy-texnika resurslari etkazib berilishi uchun OAKga kvotalar ajratilishini ko‘zda tutsinlar.

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Gogol ko‘chasi, 70-uydagi Fanlar akademiyasi Rayosati binosiga joylashtirilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi OAKni ta‘minlash, berilayotgan binoni asosli tuzatish va jihozlash uchun 1992 yilda zarur mablag‘larni ajratsin, shuningdek, OAK apparati uchun 2 ta engil avtomobil saqlashga limitlarni ko‘zda tutsin.

O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil transporti vazirligi, Aloqa vazirligi OAK talabnomalari bo‘yicha limitga muvofiq transport vositalari ajratsin va belgilangan tartibda telefon, shu jumladan, hukumat telefon aloqasi bilan ta‘minlansin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari o‘rtoq M. I. Qoraboev zimmasiga yuklatilsin.

Vazirlar Mahkamasining Raisi I. KARIMOV

*Toshkent sh.,  
1992 yil 9 sentyabr,  
421-son*

Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 9 sentyabrdagi 421-son qaroriga ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi  
apparating  
TUZILMASI**

Rahbariyat

Biologiya, qishloq xo‘jaligi, kimyo va tibbiyot fanlari bo‘linmasi

Fizika-matematika, texnika fanlari va Er haqidagi fanlar bo‘linmasi

Gumanitar va ijtimoiy fanlar bo‘linmasi

Davlat inspeksiyasi

Me‘yoriy-axborot bo‘limi

Xalqaro aloqalar bo‘limi

Ishlar boshqarmasi

«OAK axborotnomasi» jurnali

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi  
to‘g‘risida  
NIZOM**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (O‘zbekiston Respublikasi OAK) fan, texnika, ta‘lim va madaniyat yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy, ilmiy-pedagog xodimlarga ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar beruvchi davlat organi hisoblanadi. OAK Vazirlar Mahkamasi huzuridagi idora huquqlaridan foydalanadi va respublikada ilmiy, ilmiy-pedagog kadrlarni davlat yo‘li bilan attestatsiyadan o‘tkazishning ahvoli va tizimini takomillashtirish uchun mas’uldir.

2. OAKning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazishga rahbarlik qilish hamda ilmiy darajalar va ilmiy unvonlarga qo‘yiladigan talablarning yagonaligini ta‘minlash; ixtisoslashtirilgan kengashlar ishi va dissertatsiya ishlari sifatini, ularning ilmiy va amaliy qiymatini nazorat qilib borish;

ilmiy unvonlar va ilmiy darajalarga qo‘yiladigan malaka talablarini xalqaro andazalarga muvofiq holga keltirish.

3. OAK o‘ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq:

vazirliklar va idoralarning, fanlar akademiyalarining taqdimnomalariga binoan etakchi oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida fan doktori va nomzodi ilmiy darajalarini olish uchun dissertatsiyalar yoqlash bo‘yicha ixtisoslashtirilgan kengashlar tuzadi;

ixtisoslashtirilgan kengashlar raislarini va ularning shaxsiy tarkibini tasdiqlaydi hamda kengashlarga dissertatsiyalarni yoqlash uchun qabul qilish huquqini beradigan ixtisosliklar ro‘yxatini belgilaydi;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda, ilmiy texnika va ijtimoiy taraqqiyot talablarini hisobga olgan holda, rejalashtirilayotgan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarining mavzularini nazorat qilish tartibida ko‘rib chiqadi;

tegishli ixtisoslashtirilgan kengashning taqdimnomasi asosida fan doktori, nomzodi ilmiy darajasini beradi hamda tegishli kengashlarning taqdimnomasiga binoan professor, dotsent va katta ilmiy xodim ilmiy unvonlarini beradi;

boshqa davlatlarning ilmiy darajalari va ilmiy unvonlari haqidagi diplomlar va attestatlarni respublikanikiga tenglashtirish (nostrifikatsiyalash)ni amalga oshiradi, fan doktori va nomzodi diplomlarini hamda professor, dotsent va katta ilmiy xodim attestatlarini rasmiylashtiradi;

yoqlangan dissertatsiya ishlarining tahlilini o‘tkazadi hamda natijalari dissertatsiya ishlarida bayon etilgan bajarilgan ilmiy tadqiqotlar haqida, ularni amaliyotga joriy qilish imkoniyati to‘g‘risidagi tegishli tavsiyalar bilan birgalikda, respublika vazirliklari, idoralariga muntazam ravishda axborot yuborib turadi.

4. OAK yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning attestatsiyasi masalalari bo‘yicha axborotnoma nashr etadi. Axborotnoma, shuningdek, dissertatsiyalar yoqlanishi va ilmiy darajalar berilishi haqidagi axborotlar ham e‘lon qilib turiladi.

5. OAK quyidagi huquqlarga egadir:

ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish masalalari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan kengashlar va ilmiy kengashlar faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

OAK ilmiy kengashi va rayosati majlislarida ish tajribalarini o‘rganish va umumlashtirish maqsadida ixtisoslashtirilgan kengashlar raislarining hisobotlarini eshitish;

ixtisoslashtirilgan kengashlarga nisbatan, ishlar sifatsiz olib borilgan yoki dissertatsiya yoqlash yuzasidan belgilangan tartib qo‘pol ravishda buzilgan hollarda, ularni yopib qo‘yishgacha choralar ko‘rish;

ixtisoslashtirilgan kengashlar faoliyatini tekshirib turish, ayrim dissertatsiyalarni nazorat ekspertizasidan o'tkazish uchun zarur hollarda opponentlar va taqrizchilar tayinlash, oliy o'quv yurtlari, Fanlar akademiyalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning, ularning qaysi idoraga bo'ysunishidan qat'i nazar, yuqori malakali mutaxassislarini jalb qilish. Ixtisoslashtirilgan kengashlar faoliyatini tekshirishda qatnashish, opponent va taqrizchi vazifalarini ado etish vaqtida jalb etilgan olimlar va mutaxassislar o'z xizmat vazifalarini bajarishdan ozod etilib, ularning doimiy ish joylaridagi ish haqlari saqlanadi. Olimlarning ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimida ishtirok etishlari ularning ijtimoiy-ilmiy faoliyatining muhim jihati deb baholanadi va hisobga olinadi;

nomzodlik imtihonlarini tashkil qilish va ularning saviyasi ustidan nazoratni amalga oshirish;

ilmiy darajalar va unvonlar beruvchi kengashlar ishlab turgan tashkilotlar va muassasalardan, ularning qaysi idoraga bo'ysunishidan qat'i nazar, belgilangan tartibda har yilgi hisobotlarni hamda respublikada ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va ularni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash va chora-tadbirlar ko'rish uchun vazirliklar hamda idoralardan zarur axborotlar olib turish;

yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi tizimini takomillashtirish, dissertatsiyalarning ilmiy saviyasi va amaliy qiymatini oshirish bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun belgilangan tartibda idoralararo kengashlar chaqirish;

yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog xodimlarni tayyorlash hamda attestatsiyadan o'tkazish masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar, kengashlar, konferensiyalar ishida qatnashish, boshqa mamlakatlarning tegishli tashkilotlari bilan tajriba almashishni amalga oshirish;

dissertatsiyalarga qo'yiladigan talablarga muvofiq fan va xalq xo'jaligi uchun ahamiyati yuzasidan qo'shimcha xulosa olish maqsadida dissertatsiya ishlarini zarur bo'lib qolgan hollarda ixtisoslashtirilgan kengashlarga yuborish;

belgilangan tartibda ilmiy va ilmiy-pedagog xodimlarni ilmiy darajalar va ilmiy unvonlardan mahrum qilish.

6. OAK o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining boshqa qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlariga, ushbu Nizomga, shuningdek, o'z faoliyati sohasiga taalluqli boshqa me'yoriy hujjatlarga amal qiladi.

7. OAKga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tayinlanadigan rais boshchilik qiladi. OAK O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan bir nafar birinchi o'rinbosarga va bir nafar o'rinbosarga, shuningdek, bosh ilmiy kotibga ega bo'ladi. Rais o'rinbosari va bosh ilmiy kotib o'rtasida vazifalarni OAK raisi taqsimlaydi.

8. OAK raisi, uning o'rinbosarlari, bosh ilmiy kotib OAK zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun mas'uldirlar. OAKning ekspertlar kengashlari, bo'limlari va boshqa bo'linmalarining ishini yo'naltiradilar va nazorat qilib boradilar.

OAK raisi amaldagi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari asosida va ularni ijro etish maqsadida malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishni tashkil qilish yuzasidan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar tomonidan, ularning qaysi idoraga bo'ysunishidan qat'i nazar, bajarilishi shart bo'lgan buyruqlar va yo'riqnomalar chiqaradi, shuningdek, ularning ijrosini nazorat qiladi.

9. OAK ilmiy kengashi ilmiy-ijtimoiy organ hisoblanadi, u respublika oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, vazirliklar, idoralar, fanlar akademiyalarining takliflari asosida fanning asosiy yo'nalishlari olimlari va mutaxassislaridan tuziladi. Ilmiy kengashning tarkibiy soni va shaxsiy tarkibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi va vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi.

OAK ilmiy kengashi rayosat, ekspertlar kengashlari, ixtisoslashtirilgan kengashlar, ilmiy unvonlar beruvchi kengashlar faoliyati haqidagi hisobotlarni eshitadi, yuqori malakali ilmiy va

ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishga oid hujjatlarni tasdiqlash uchun tavsiya etadi.

OAK ilmiy kengashining fanning turli muammolari va yo'nalishlariga muvofiq tarzda guruhlar va seksiyalarga birlashgan a'zolari zarur hollarda ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish to'g'risida rayosatga tavsiyanomalar tayyorlashga, shuningdek, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog xodimlar attestatsiyasini takomillashtirish yuzasidan takliflarni, OAKga tushadigan norozilik arizalarini va shikoyatlarni ko'rib chiqishga jalb etiladilar. OAK ilmiy kengashi yiliga kamida ikki marta chaqiriladi. OAK ilmiy kengashi o'z vakolatlari doirasida qarorlar chiqaradi.

10. OAK raisi, uning o'rinbosarlari, bosh ilmiy kotib va OAK ilmiy kengashi boshqa a'zolaridan iborat rayosat OAKning rahbarlik qiluvchi ijro organi hisoblanadi. Rayosatning tarkibiy soni va shaxsiy tarkibini Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi.

OAK rayosati ixtisoslashtirilgan kengashlarni tashkil qilish tartibini ishlab chiqadi, ixtisoslashtirilgan kengashlarni tashkil etish uchun ruxsat beradi, ularning shaxsiy tarkibini tasdiqlaydi, ularga tegishli ixtisoslar bo'yicha dissertatsiya ishlarini ko'rib chiqish huquqini beradi; ekspertlar kengashini tuzish haqida qarorlar kiritadi va o'z ishida ularga tayanadi, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish haqida qarorlar qabul qiladi, ixtisoslashtirilgan kengashlar va ilmiy unvonlar beruvchi kengashlar raislarining ishi to'g'risidagi hisobotlarni, davlat inspeksiyasi bo'limi axborotlarini vaqti-vaqti bilan eshitib turadi. OAK plenumi ko'rib chiqishi uchun kiritilgan hujjatlar loyihalarini muhokama qiladi, OAK ixtiyoridagi boshqa masalalarni hal etadi.

11. OAK faoliyatiga oid kundalik masalalarni ko'rib chiqish va hal etish, OAK bo'limlari, bo'linmalari ishiga tezkor rahbarlik qilish va ularni nazorat qilib borish, qabul qilingan qarorlarning ijrosini tekshirish, OAK apparati kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish uchun OAK raisi, uning yordamchilari, bosh ilmiy kotib hamda davlat bosh inspektoridan iborat OAK hay'ati tuziladi.

12. Ilmiy kengash, rayosat, hay'at ishiga OAK raisi rahbarlik qiladi.

13. Ilmiy kengash, rayosat, uning hay'ati qarorlari ochiq ovoz berish orqali majlis ishtirokchilarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

14. Taqdim etilgan dissertatsiyalarni ilmiy ekspertizadan o'tkazish, shuningdek, ilmiy unvonlar berish to'g'risidagi taqdimnomalarni ko'rib chiqish uchun OAK fan tarmoqlari bo'yicha xalq xo'jaligi va madaniyatning etakchi mutaxassis olimlaridan iborat ekspertlar kengashlari tuzadi. Ekspertlar kengashlarining shaxsiy tarkibi oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va muassasalarining, fanlar akademiyalari, shuningdek, manfaatdor vazirliklar va idoralarning tavsiyalari hisobga olingan holda belgilanadi va keyinchalik kengashning kamida uchdan bir qismini yangilash sharti bilan, OAK rayosati tomonidan 3 yil muddatga tasdiqlanadi.

15. OAK apparati tuzilmasi va shtatdagi xodimlari soni Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. OAK apparatining xodimlari ro'yxati, shuningdek, bo'limlar, ekspertlar kengashlari to'g'risidagi nizomlar OAK rayosati tomonidan tasdiqlanadi. OAKning ishdan ozod etilmagan a'zolarining, ekspertlar kengashlarining, shuningdek, opponentlar va taqrizchilarning, jalb etilgan mutaxassislarning mehnatiga belgilangan tartibda haq to'lanadi.

16. O'zbekiston Respublikasi OAK O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasvirlangan va o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi.